

SIL KASALLIGINING ETIOLOGIYASI VA EPIDEMIOLOGIYASI

Batirova Barchinoy Tadjimuxammadovna

Andijon Davlat Tibbiyot instituti

ftiziatriya va pulmonologiya mikrobiologiya kafedrası assistant

Sil qo'zg'atuvchisi 1882 yilda Robert Kox tomonidan aniqlangan zamonaviy tasnif bo'yicha Actinomyces tarkibiga, Micobacteriosae oilasiga, mikobakteriyalar avlodiga tegishlidir. Shu avlodga Berjining mikroorganizmlar aniqlagichida (1974) 29 patogen, potensial patogen va saprofit turlar kiritilgan, keyinchalik aniqlik kiritilishini talab qiluvchi 11 tur ham shu avlodga kiritilgan. Patogen mikroorganizmlarga sil va moxov qo'zg'atuvchilari kiradi. «Atipik mikobakteriyalar» nomi bilan jam qilingan shartli patogen va saprofit mikobakteriyalar suvda, tuproqda, o'simliklarda, odam organizmi normal florasida uchraydi, buni bemorlardan olingan patologik materialni bakterioskopik tekshirayotganda hisobga olish lozim, chunki bundan tashqari atipik mikobakteriyalar tashqaridan silga o'xshash o'pka kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin, bu mikobakterioz deb ataladi. Turli biologik turlari, ayniqsa odam va turli hayvonlar uchun patogenligini hisobga olib sil mikobakteriyalarining 4 turi farqlangan: a) M.tuberculosis. b) M.bovis. c) M.avium. d) M.microti. Oxirgi turini bir necha olimlar (Naximson L.I. 1946, Kagramanov A.I. 1955 v.b.) dala sichqonlari organizmiga moslashgan deb hisoblashadi. Alohida turlari orasida oraliq shakllari uchraydi. Turlar bir biridan farqlovchi turlicha morfologik, kultural, bioximik, biologik xususiyatlarga ega. Odam va qora mol turlarini farqlashda Konno sinamasi muhim, bu sinama odam mikobakteriyasining nisbatan ko'p miqdorda nissin hosil qilishiga asoslangan. Odam va qora mol mikobakteriyalari nafaqat odamda, balki mollarda, qo'ylarda, echkilarda, cho'chqalarda kasallik chaqirishi mumkin. Ot, it, mushuklar sil bilan kam og'riydilar. Kalamushlarda ayniqsa kam uchraydi. Hozirgi zamonda ma'lum antroppoziotlar ichida sil eng keng tarqalganidir. Sil bilan kasallanishi mumkin bo'lgan 54 turdagi sut emizuvchilar va 80 turdagi qushlar ma'lum. Sil qo'zg'atuvchisining morfologiyasi Sil qo'zg'atuvchisi ingichka egik tayoqcha shaklida bo'lib, uzunligi 0,8 dan 3-8 mkm gacha, eni 0,3-0,5 mkm. Uzunligi to'qimalarda sekin bo'linish natijasida cho'zilishi mumkin. Mikobakteriya o'ta yupqa kesimlarini elektron mikroskop ostida o'rganilganda uning ko'p qavatli hujayra membranasi va 3 qavatli, ba'zi joylarda sitoplazmaga botib ko'ndalang to'siqlar hosil qiluvchi sitoplazmatik membranasi farqlanadi. Ba'zi organiodlarning funksional ahamiyati hozirgacha ham aniqlanmagan. Umuman olganda sil mikobakteriyasining ultrastrukturasi va biokimyoviy tarkibi hali oxirigacha o'rganilmagan. Mikobakteriyalarning tashqi muhit ta'sirotlariga chidamliligi quyidagicha: ko'cha changida 10 kungacha, kitob varaqlarida 3 oygacha, suvda 150 kungacha, tarqoq yorug'likda 1-1,5 oy, quritilgan holda 1-1,5 yil, vakuumda muzlatilgan holda liofilizatsiya qilingan holda 30 yilgacha, ultrabinafsha nurlar ostida 2-3 daqiqa, biroq quyosh nuri bilan nurlantirilganda 1-1,5 soat, qaynatilganda 5 daqiqa, quruq issiqda 45 daqiqa, 3-5% li xlorli ohak eritmasida 5 soat, 1-2% xloramin eritmasi, faollangan ammoniy-sulfatda 3 soat, 10-20%li xlorli ohakda 2,5 soatda o'ladi. Sil kasalligining epidemiologiyasi Dunyo bo'yicha 8,8 mln. silga chalingan bemorlar qayd qilinib, ularning 1,5 million nafari vafot etgan. Sil kasalligining dori vositalariga ko'p bardoshli shakliga chalingan bemorlar soni 450,0 mingga yaqin bo'lib, mazkur xastalik bemorlarning yashash muddatiga ta'sir ko'rsatadi va ular kasallikni yuqtirgandan keyin bir necha yil yashaydi. Shu sababli SK-DVKB shakliga chalingan bemorlarning tarqalganlik darajasi uning qayd qilingan sonidan uch barobar yuqori bo'lib, dunyo bo'yicha ular sonining bir milliondan

oshgani bashorat qilinmoqda. Respublikamizda sil kasalligini tashxislash va samarali davolash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi natijasida sil kasalligiga chalingan bemorlarga barvaqt tashxis qo'yish, uning dori vositalariga bardoshli shakllarini qisqa muddatlarda molekulargenetik ekspress usullar yordamida aniqlash imkoniyati yaratildi. Mamlakatimiz, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida silga qarshi o'tkazilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida mazkur kasallik bilan kasallanish keyingi 10-12 yil mobaynida kamayishiga erishildi. Ayni paytda, Qoraqalpog'iston Respublikasida sildan o'lim holatlari va uning doriga bardoshli shakllari tarqalish darajasi yuqori ekaniga alohida e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Худойбердиева, М. Ж., Хакимова, Р. А., Султонов, Г. И., & Батирова, Б. Т. (2019). Современные методы диагностики абдоминального туберкулёза. *Новый день в медицине*, (4), 358-360.
2. Зырянова, Т. В., Поддубная, Л. В., Федорова, М. В., & Липский, К. А. (2009). Туберкулез органов брюшной полости у больных туберкулезом легких. *Journal of Siberian Medical Sciences*, (2), 5.
3. Kumar, Vinay; Abbas, Abul K.; Fausto, Nelson; & Mitchell, Richard N. (2007). *Robbins Basic Pathology* (8th ed.). Saunders Elsevier. pp. 516-522 [ISBN 978-1-4160-2973-1](#)